Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich (Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi; a.yodgorov@gmail.com)

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOIY MUNOSABATLARINING O'ZGARISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada axborotlashgan jamiyat shakllanishi sharoitida ijtimoiy munosabatlarning mazmuniy va strukturaviy o'zgarishlari ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji shaxslararo aloqalar, ijtimoiy institutlar faoliyati hamda jamoatchilik ongining shakllanishiga ko'rsatayotgan ta'siri yoritilgan. Shuningdek, axborot makonining kengayishi natijasida yuzaga kelayotgan yangi ijtimoiy muammolar va ularni bartaraf etish istiqbollari ilmiy asosda baholanadi.*

Kalit so'zlar: *axborotlashgan jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, axborot texnologiyalari, ijtimoiy ong, qadriyatlar, tarmoqli jamiyat, raqamli tafovut.*

Ёдгоров Алишер Нурмухаммадович (независимый исследователь Института социально-духовных исследований; a.yodgorov@gmail.com)

ИЗМЕНЕНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. *В статье с социально-философской точки зрения анализируются содержательные и структурные изменения социальных отношений в условиях формирования информационного общества. Рассматривается влияние стремительного развития информационно-коммуникационных технологий на межличностные связи, функционирование социальных институтов и формирование общественного сознания. Также на научной основе оцениваются новые социальные проблемы, возникающие в результате расширения информационного пространства, и перспективы их преодоления.*

Ключевые слова: *информационное общество, социальные отношения, информационные технологии, общественное сознание, ценности, сетевое общество, цифровое неравенство.*

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich (Independent Researcher Institute of Social and Spiritual Studies; a.yodgorov@gmail.com)

CHANGES IN SOCIAL RELATIONS IN THE INFORMATION SOCIETY

Annotation. *This article analyzes the substantive and structural changes in social relations under the conditions of the formation of the information society from a socio-philosophical perspective. The impact of the rapid development of information and communication technologies on interpersonal relations, the functioning of social institutions, and the formation of public consciousness is examined. In addition, new social problems arising from the expansion of the information space and the prospects for addressing them are scientifically assessed.*

Keywords: *information society, social relations, information technologies, social consciousness, values, network society, digital divide.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti axborot va bilimning strategik resursga aylanishi bilan xarakterlanadi. Raqamli texnologiyalar, global kommunikatsiya tarmoqlari va ommaviy axborot oqimlari jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Natijada, ijtimoiy munosabatlar tizimi ham an'anaviy shakllardan farqli ravishda, yangi mazmun kasb etmoqda.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi aloqalar qayta talqin qilinib, ijtimoiy munosabatlar ko'proq axborot almashinuvi va kommunikativ jarayonlar bilan belgilanmoqda. Shu bois mazkur maqolada axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning o'zgarish jarayonini ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish dolzarb vazifa sifatida belgilandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichi – axborotlashgan jamiyatni shakllantirdi. Ushbu jamiyatda axborot asosiy strategik resursga aylanib, ijtimoiy munosabatlar tizimining mazmuni, shakli va mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy ijtimoiy aloqalar o'rnini tobora ko'proq raqamli muloqot, tarmoqli hamkorlik va virtual ijtimoiy maydonlar egallamoqda. Axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasi, avvalo, shaxslararo aloqalar darajasida namoyon bo'ladi. Raqamli kommunikatsiya vositalari (ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, onlayn platformalar) insonlar o'rtasidagi masofani qisqartirib, muloqotni tezkor va ko'pkanalli holga keltirdi. Biroq bu jarayon muloqotning chuqurligi va mazmuniga ta'sir ko'rsatib, ayrim hollarda yuzma-yuz muloqotning qisqarishi, emotsional begonalashuv va individualizmning kuchayishiga olib kelmoqda.

Axborotlashgan jamiyat tushunchasi jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini ifodalaydi. Bu bosqichda axborot ishlab chiqarish, saqlash va tarqatish jamiyat rivojining muhim omiliga aylanadi. D.Bell

ushbu jarayonni postindustrial jamiyat nazariyasi doirasida izohlab, bilim va ilmiy axborotning ijtimoiy tuzilmalardagi rolini alohida ta'kidlaydi [1].

O'z navbatida, A.Toffler axborotlashgan jamiyatni insoniyat taraqqiyotidagi "uchinchi to'lqin" sifatida baholab, texnologik yangilanishlar nafaqat iqtisodiy munosabatlarga, balki tafakkur va turmush tarziga ham bevosita ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi [2]. Ushbu yondashuvlar axborotlashgan jamiyatni faqat texnik hodisa emas, balki murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida tushunishga asos bo'ladi.

O'zbek falsafiy tafakkurida ham axborotlashgan jamiyat masalasi jamiyat rivojining yangi sifati sifatida talqin qilinadi. Q.Nazarov ta'kidlaganidek, jamiyat taraqqiyotida axborot almashinuvi ijtimoiy ong shakllanishining asosiy shartlaridan biri bo'lib, uning rivojlanish darajasi ijtimoiy munosabatlarning mazmunini belgilaydi [3]. Demak, axborotlashgan jamiyat texnologik hodisa bo'lishi bilan birga, ijtimoiy-falsafiy mohiyatga ega murakkab tizimdir.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi ijtimoiy munosabatlarning shakl va mexanizmlarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. An'anaviy muloqot shakllari bilan bir qatorda virtual aloqalarning kengayishi natijasida ijtimoiy makon tushunchasi yangi mazmun kasb etib, real va raqamli muhit o'rtasidagi chegaralar nisbatan xiralashmoqda. M.Kastels ushbu jarayonni "tarmoqli jamiyat" konsepsiyasi orqali izohlab, unda ijtimoiy munosabatlar moslashuvchan, ochiq va dinamik tuzilma sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [4].

Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik ongining shakllanishi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Axborot oqimining haddan tashqari ko'pligi inson tafakkuriga kuchli ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy ongni fragmentarlashuvi, manipulativ axborotlar va soxta xabarlar (feyk axborot) muammosini keltirib chiqarmoqda. Natijada, ijtimoiy munosabatlarda ishonch inqirozi, axborot tanlash madaniyatining yetishmasligi va raqamli tafovut (digital divide) kabi muammolar dolzarb tus olmoqda. Shu bilan birga, axborotlashgan jamiyat ijtimoiy munosabatlar rivoji uchun yangi imkoniyatlar ham yaratmoqda. Tarmoqli jamiyat sharoitida ijtimoiy hamkorlikning yangi shakllari, fuqarolik faolligi va o'zini-o'zi ifodalash mexanizmlari rivojlanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surish va muammolarga jamoaviy yechim topish imkonini bermoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur transformatsiya jarayonini avlodlar nazariyasi doirasida tahlil qilish ijtimoiy munosabatlarning ichki mexanizmlarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. X.Strauss va N.Howe tomonidan ilgari surilgan avlodlar nazariyasiga ko'ra, axborot texnologiyalarida ulg'aygan raqamli avlod (Y va Z avlodlari) ijtimoiy aloqalarni ko'proq virtual makon orqali amalga oshiradi, ularning kommunikativ xulq-atvori tezkorlik, qisqalik va vizuallikka yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Bu holat turli avlodlar o'rtasida muloqot uslublari va ijtimoiy qadriyatlarda farqlanishni kuchaytirib, ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyalanishiga olib kelmoqda.

Tahlil va Natijalar (Analysis and results). Axborotlashgan muhit ta'sirida ijtimoiy tafakkur ham transformatsiyalanmoqda. Axborot oqimlarining yuqori intensivligi tafakkurning fragmentarlashuvi, pragmatiklashuvi va ko'p vazifali (multitasking) xarakter kasb etishiga sabab bo'lmoqda. Natijada chuqur tahliliy fikrlash o'rnini tezkor qaror qabul qilish va sirtqi idrok etish jarayonlari egallay boshlamoqda. Ushbu holat ijtimoiy ong shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, qadriyatlar tizimining qayta talqin qilinishiga zamin yaratmoqda.

Biroq axborotlashgan jamiyatda yuz berayotgan mazkur jarayonlar ijobiy jihatlar bilan bir qatorda muayyan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Xususan, axborot resurslariga teng kirish imkoniyatining mavjud emasligi turli avlodlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida yangi tafovutlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu holat "raqamli tafovut" tushunchasi orqali izohlanib, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning yangi ko'rinishi sifatida namoyon bo'lmoqda. Q.Nazarov ta'kidlaganidek, axborotdan foydalanish darajasidagi farqlar ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlar tizimida nomutanosibliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Axborot muhitining kengayishi ijtimoiy ong shakllariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot oqimlarining ko'pligi shaxsning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini tezkor o'zgaruvchan holatga keltirmoqda. Z.Bauman bu jarayonni zamonaviy jamiyatdagi beqarorlik va o'tkinchilik bilan bog'lab, ijtimoiy munosabatlarning "suyuqlashuvi"ni ta'kidlaydi [5].

Shu bilan birga, axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy ongni shakllantirishda ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarning roli keskin ortmoqda. Bu esa axborotdan ongli foydalanish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish va axborot madaniyatini yuksaltirish zaruratini kuchaytiradi. Q.Nazarovning fikricha, axborot madaniyatining yetarli darajada shakllanmasligi jamiyat ma'naviy hayotida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin [3].

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy munosabatlarning rivoji bir qator muammolar bilan kechadi. Xususan, axborot xavfsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, fake (soxta) axborotlar va madaniy identifykatsiya masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish davlat, jamiyat va shaxs o'rtasidagi mas'uliyatli hamkorlikni taqozo etadi.

Istiqbol nuqtayi nazaridan, axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni barqaror rivojlantirish uchun:

- axborotdan ongli va mas'uliyatli foydalanish madaniyatini shakllantirish;
- tanqidiy va falsafiy tafakkurni rivojlantirish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash zarur.

Bu jarayon jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, inson omilining ustuvorligini saqlab qolish va ma'naviy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy munosabatlar tizimi mazmun va shakl jihatidan chuqur transformatsiyaga uchramoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji ijtimoiy aloqalarning an'anaviy mexanizmlarini qayta shakllantirib, real va virtual makon o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirmoqda. Natijada ijtimoiy munosabatlar tobora moslashuvchan, tarmoqli va dinamik xarakter kasb etmoqda.

Axborot oqimlarining intensivligi tafakkur transformatsiyasiga sabab bo'lib, unda fragmentarlashuv, pragmatiklashuv va sirtqi idrokning kuchayishi kuzatilmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, shaxsning moslashuvchanligini oshirsa, ikkinchi tomondan, chuqur tahliliy fikrlash va ma'naviy barqarorlikka bo'lgan ehtiyojni yanada dolzarb etmoqda. Shu bois axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy ongni rivojlantirish masalasi muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur sharoitda ijtimoiy munosabatlarning barqaror rivojini ta'minlash axborot madaniyatini yuksaltirish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Bell D. The Coming of Post-Industrial Society. New York, 1973.

(2). Toffler A. The Third Wave. New York, 1980.

(3). Qiyom Nazarov. Jahon falsafasi qomusi. Toshkent, "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2022.

(4). Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford, 1996.

(5). Bauman Z. Liquid Modernity. Cambridge, 2000.

Berdikulova Surayyo Aslamovna (O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti (PhD),
Xuramova Ungaloy Xolboyevna (O'zbekiston Milliy universiteti magistranti; e-mail: xurramxurramova@gmail.com)

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ILMIY MEROSIDAGI AXLOQIY QADRIYATLARIDAN DAVLAT SIYOSATI VA JAMOATCHILIKDA FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma'naviy merosi davlat siyosati va jamoatchilik hayotida axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda tutgan o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, qadimiy axloqiy tamoyillarning bugungi jamoatchilik siyosati, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlashga ta'siri empirik ma'lumotlar asosida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Sharq mutafakkirlari, axloqiy qadriyatlar, davlat siyosati, jamoatchilik, ma'naviy meros, siyosiy madaniyat, ijtimoiy taraqqiyot.*

Бердикулова Сурайё Асламовна (доцент (PhD) Национального университета Узбекистана),
Хурамова Унгалой Холбоевна (магистрант Национального университета Узбекистана;
E-mail: xurramxurramova@gmail.com)

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ ИЗ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКЕ И ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. *В данной статье анализируется роль научно-духовного наследия восточных мыслителей в формировании нравственных ценностей в государственной политике и общественной жизни. Также на основе эмпирических данных раскрывается влияние древних нравственных принципов на современную общественную политику, социальную стабильность и укрепление гражданской ответственности.*